

**CHET EL INVESTITSIYALARINING O‘ZBEKISTON IQTISODIY
O‘SISHIGA TA’SIRI**

Toshkent davlat iqtisodiyot univeristeti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Ergasheva Mohira

+998934731661

Annotasiya: Ushbu maqolada chet davlatlar investitsiyalarining O‘zbekiston iqtisodiy o‘shiga ta’siri tahlil qilingan. Investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari, xorijiy kapitalning mamlakat sanoati, eksporti salohiyati hamda texnologik modernizatsiyaga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Statistik ma’lumotlar asosida O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi chet el investitsiyaari hajmining ortishi, ularning iqtisodiy tarmoqlardagi o‘rni hamda samaradorligi tahlil etilgan. Shu o‘rinda, investitsion muhitni yanda yaxshilash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘shida xorijiy investitsiyalarning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: chet el investitsiyasi, iqtisodiy o‘sh, investitsion siyosat, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya, eksport, iqtisodiy islohotlar, investitsion loyiha.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelajakdagi taraqqiyoti, avvalo, investitsiyalar hajmi va samaradorligiga chambarchas bog‘liq ekanligi barcha mutaxassislar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to‘liq anglanmoqda. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiyotiga, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish – amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta’minlovchi muhim omilga aylangan. Investitsiyalar, jumladan, chet el sarmoyalari mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Chunki hech bir davlat jahon tajribasini o‘zlashtirmasdan hamda



ilg'or mamlakatlarning ilm, fan va texnologiya sohalaridagi yutuqlarini amaliyotga tatbiq etmasdan barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi.

Xalqaro hamda milliy miqyosda investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish bo'yicha keng tajribalar shakllangan. Investitsiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatning iqtisodiy siyosati, huquqiy bazasi, investitsiya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hamda iqtisodiy barqarorligiga bog'liqdir. O'zbekistonda mavjud tabiiy va xomashyo resurslari iqtisodiyot uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, ushbu resurslarni faqat xomashyo sifatida emas, balki tayyor, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish zarurligi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.


Globallashuv sharoitida investitsiyalar uchun xalqaro raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratish choralari ko'rilmogda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda "ochiq eshiklar" siyosatini yuritish, kapital oqimini iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlovchi hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan tarmoqlarga yo'naltirish — respublikaning hozirgi investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham investitsiyalarni jalb qilishga katta ahamiyat qaratilgan. Shu boisdan, 2019 – yil 15 –dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligi ham bunga yaqqol misoldir. Ushbu qonun doirasida chet el investitsion loyihalarlarni mamlakatimizga jalb qilish, mamlakat hududida tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash ustuvor yo'nalish etib belgilangan [1]. Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- Qonuniylik;
- Oshkoralik va ochiqlik;
- Investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
- Adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
- Investorlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

- Investorning vijdonliligi prezumpsiyasi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 2024-yildagi ma'lumotlarga qaraganda, asosiy kapitalga investitsiyalar yillik hajmi umumiy 507490 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilda 35071 mlrd. so'mga teng edi. Viloyatlar kesimida esa Toshkent viloyati 73325 mlrd. so'm bilan eng yuqori investitsiyalarga ega bo'lmoqda [2].



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar yillik hajmi (mlrd. so'm)¹

ADABIYOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga ta'sirini tahlil qilishda tizimli tahlil usuli hamda qiyosiy tahlil yondashuvlar qo'llanildi. Metodologik jihatdan tadqiqotda 2020-2024-yillar oralig'idagi investitsiya ko'rsatkichlari tahlil qilindi hamda investitsiya oqimlarining makroiqtisodiy natijalarga ta'siri aniqlab berildi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida hamda mamlakatimizda qabul qilingan qaror va qonunlar doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Maqola davomida O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi tomonidan tuzilgan ma'lumotlar asosida tuzildi.



Respublikasi Statistika Qo'mitasi tomonidan berilgan ma'lumotlardan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmasdan turib, ayniqsa yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyadorlari ishtirokini kengaytirmasdan, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya jarayonlari va korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlashni to'liq amalga oshirish mushkuldir. Xorijiy kapitalning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishiga, mavjud ichki resurs va salohiyatning to'liq safarbar etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlashda chet el investitsiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatida chet el investitsiyalarini jalb etish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Chet el investitsiyalari mamlakat iqtisodiyotiga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturlari doirasida 1,5 mingdan ortiq loyihalar amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etdi [3]. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston investitsiya siyosatini bosqichma-bosqich erkinlashtirdi. 2017-yildan boshlab xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, soliqlarning kamaytirilishi, valyuta bozorini liberallashtirish kabi islohotlar amalga oshirildi. 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 8,8 milliard AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Asosiy investor davlatlar: Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Germaniya.

Chet el investitsiyalari iqtisodiy o'sishga ijboiy ta'sir o'tkazadi. Chet el investitsiyalari natijasida:

- Sanoat ishlab chiqarishni hajmi oshadi;
- Eksport salohiyati kengaydi;



- Yangi texnologiyalar joriy qilinadi.

Masalan, “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalar xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratgan. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mamlakat sanoat mahsulotining 25 foizini, eksportning esa 30 foizini tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xorijiy sarmoyalar asosan quyidagi sohalarga yo‘naltirilgan:

- Energetika (neft-gaz, qayta tiklanuvchi energiya manbalari);
- Kimyo sanoati;
- Avtomobilsozlik;
- To‘qimachilik;
- Axborot texnologiyalari va logistika kabi hozirgi eng dolzarb va yuqori daromadli sohalardir.

Investitsiyalar faoliyatini, xorijiy sarmoyalar oqimiga to‘siqlar mavjud bo‘lib, asosiylaridan biri – byurokratik jarayonlardir. Infratuzilma yetishmasligi ham xorijiy sarmoya oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yana bir muammolardan biri – ayrim hududlarda kadrlar malakasini yetishmasligi ham kiradi.

Bularga yechim sifatida, investorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, investitsiya qonunchiligini yanada soddalashtirish, erkin savdo va iqtisodiy zonalar sonini ko‘paytirish hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishni aytishimiz mumkin.

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashda xorijiy investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chet el kapitali nafaqat moliyaviy resurslar oqimini, balki ilg‘or texnologiyalar, menejment tajribasi va yangi ish o‘rinlarini ham olib kiradi.

So‘nggi yillardagi islohotlar xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratib, investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirdi. Biroq, investitsion faollikni yanada kuchaytirish uchun davlat tomonidan kafolatlangan barqaror iqtisodiy muhitni saqlab qolish, kadrlar malakasini oshirish va texnologik yangilanishni jadallashtirish zarur.



Kelgusida O‘zbekiston uchun eng ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- yuqori texnologiyali tarmoqlarga sarmoya kiritishni rag‘batlantirish;
- “yashil iqtisodiyot” sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash;
- mahalliy va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligi va global iqtisodiy tizimdagi mavqeini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi 25-dekabr 2019-yildagi O‘RQ-598-sonli Qonuni. <https://www.lex.uz> O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari <https://www.stat.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari (2022–2024)
4. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.